

O‘G‘UZ LAHJASIDA POLISEMIYA HODISASINING TASNIFI

Sa‘dullayeva Mohira Sobirovna

Navoiy davlat pedagogika instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada shevalarga umumiylashtirishni berilib, ularning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikr bildirilgan. Shuningdek, polisemiya tushunchasi uning o‘g‘uz lahjasida qanday shaklda kelishi haqida nazariy ma’lumotlar keltirilib, misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: lahja, polisemiya, leksik elementlar, sheva, ko‘p ma’nolilik.

O‘zbek shevalari o‘ziga xos fonetik, grammatick va leksik xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada qipchoq, qarluq lahjalari bilan bir qatorda o‘rganilib kelinayotgan o‘g‘uz lahjasi va unda kuzatilinadigan polisemiya hodisasi haqiqia ma’lumot berib o‘tamiz. Shuni aytish joizki, shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Xususan, adabiy tilda allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan yoki ma’lum darajada o‘zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatick formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan. Ularni tahlilga tortish va o‘rganish darajasi anchayin ortib bormoqda. Buning uchun albatta nazariy bilimlarga tayanish va amalda ham shu lajhada so‘zlovchi hudud aholisi bilan jonli muloqot orqali amaliyot olib boorish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizning turli hududlarida o‘g‘uz etnik guruhiga aloqador bo‘lgan aholi istiqomat qiladi. O‘zbek tilining ushbu lahjasi Xorazm viloyati va boshqa hududlarda keng tarqalgan. Nafaqat o‘zbek olimlari, balki chet el olimlari ham turli lahjalarda so‘zlashuvchi til vakillarini hududlarini juda keng o‘rganib, xaritalashtirishgan.

O‘g‘uz shevalari haqida Vamberi Ozarbayjonliklarning ta’siri deb tushuntiradi. Ba’zi o‘rinlarda o‘z tasnifida Ye.D.Polivanov o‘g‘uz shevalarini turkmanlashgan, qipchoq shevalarini qozoqlashgan deb tushuntiradi. Prof. M.Melioranskiy jonli shevalarni o‘rganish eng qadimgi yodnomalarni ham to‘g‘ri o‘qishga va uqishga juda katta yordam beradi va bu borada bebaho material yetkazib beruvchi nodir manba ekanligini ta’kidlaydi. Bunday muhim fikrlar bizning ishimizda nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlashga, aniq xulosalarga kelishga katta xizmat qiladi.

Har qanday til qurilishida bo‘lganidek, shevalarda ham ko‘pma’nolilik, omonimlik, sinonimlik, antonimlik hodisalari uchraydi. Shevalarning shakl va ma’no munosabatlari yuzasidan rus olimlari P.I.Avenesov, L.P.Jukovskiy, V.I.Karpov kabi olimlar tadqiqotlar olib brogan. Shuningdek, A.Hojiyev, M.Mirtojiyev, S.Isamuhammedova, M.Rahmatullayeva, A.Doniyorov kabi o‘zbek olimlarining ham izlanishlari va xulosalari mavjud.

Tilshunoslikda ma’lumki, polisemiya hodisasi murakkab va dolzarb

mavzulardan biridir. Chunki unda ma'noning mazmunini izlash uchun turli obyektlarga murojaat qilishga, lug'atlar bilan ishlashga va eng asosiysi omonimlardan farqlashga diqqat qaratiladi. Qayd etilgan mavzuga XX asrning 60-yillarida e'tibor qaratila boshlandi. Ma'lumki, ko'p ma'nolilik hodisasi polisemantizm hisoblanadi.

Polisemiyalar o'zaro aloqa jarayonida so'z ma'nolarini belgilaydigan so'zlarning tilda yashashini ta'minlaydigan vositadir. Polisemiyalarning ma'no tarmoqlarini adabiy tilda matnda bajarsa, og'zaki nutqda so'zlashuv jarayonini bajaradi. Polisemantik so'zlarda leksik birliklar ma'no-mazmunini o'zaro aloqadorlik tashkil etadi.

F.A.Abdullayevning "O'zbek tilining Xorazm shevalari" asaridagi lug'at tarkibida kelgan polisemiyalarning bir nechtasini tahlilga tortganimizda quyidagilar namoyon bo'ladi:

"Айақлашмақ" xuddi shu shaklda uchraydi. Bu so'zga barcha o'zbek tilida so'zlashuvchi til vakillari tushunmasligi yoki turlicha izoh berishi tabiiy. Muallif esa bu so'zni polisemantik deya lug'at tarkibiga kiritib, uni quyidagilar orqali izohlaydi:

1. Оёқ узатмоқ, оёқни чўзиб ётмоқ; 2. Икки кимса бир-бирига оёқ узатишиб ётмоқ; 3. Бўлишмоқ, тақсим қилмоқ.

Keltirilgan ma'nolardan so'ng badiiy tilda so'zlashuvchilar uchun anchayin tasavvur paydo bo'lgani aniq.

"Бэдэвлёт" so'ziga diqqatimizni qaratsak, bu yerda birinchi bo'lib lotin va krill alifbosida uchramaydigan "э" grafikasi e'tiborimizni tortadi. Albatta, talaffuz va yozuv me'yorlari asosida kitobda keltirilgan shakl bo'yicha tasnif qilinayotgan har bir so'z asliga muvofiq ya'ni manbada keltirilgandek berilmoqda. Demak, ushbu so'zning izohlari quyidagicha va bu ham polisemiya na'munasi:

1. камбағал, факир, бечора; 2.бефаҳм, фаросатсз; 3. Аравада аравакаш ўтирадиган жой.

Navbatdagi so'z "Бастъқмақ", bunda adabiy tilimizga yaqinlik bor, hatto o'zbek tili vakillarining deyarli barchasi uchun tushunarli, ammo uning polisemantik so'z ekanligi va uning qanday ma'nolari borligini quyida birga tahlil qilamiz:

1. Бостирмоқ; 2. Бирор ишни орқага сурмоқ, пайсалга солмоқ.

Har bir tadqiq qilinadigan shevalardagi so'zlarning leksik semantikligi, shuningdek, ko'p ma'noli so'zlar ham turli yo'llar bilan yuzaga keladi. Bu holat yuzasidan shevashunos S.Rahimov fikr bildiradi. Voqealikdagi predmet xususiyatini, nomini boshqasiga ko'chirish, o'tkazish orqali sodir bo'lishini aytib, bir necha misollar orqali yoritgan.

Masalan, Yodgor seni o'ldirishga ko'p dimladi.

Bu yerda keltirilgan "dimlamoq" so'zi ko'ndirmoqchi bo'lmoq, avramoq, aldamoq kabi ma'nolarda qo'llanilgan.

Ko'p ma'noli so'zlar shevada boshqa-boshqa hududlarda qo'llanganda har xil

semalarni anglatadi. Lekin shuni unutmasligimiz lozimki, polisemiya hodisasi o‘zaro bir turkum doirasida kuzatilishini inobatga olgan holda polisemantik so‘zlarda ma’no jihatdan o‘zaro aloqadorlik sezilib turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raimnazarova N.X. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shevaga oid so‘zlarning berilishi. – Termiz-2022.
2. Xolova M.A.O‘zbek milliy shevalari korpus tadqiqi. – Termiz-2022.
3. Abdullayev F.A. O‘zbek tilining xorazm shevalari. – Toshkent-1961.
4. Nurmuhammedova A.O. Surxandaryo shevalarining lingvistik xususiyatlari. Dissertatsiya. – Termiz-2023.